



UDK:347.963

Abdugaffor A. INSOPOV,

PhD, dotsent, O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: abdugaffor_nuz@rambler.ru, ORCID: 0009-0000-2250-6625

O'RHXMU professori A.Nazarov taqrizi asosida

**LEGAL MECHANISMS FOR ENSURING SOCIALIST LEGALITY IN THE GENERAL SUPERVISORY
ACTIVITIES OF THE PROSECUTOR'S OFFICE OF THE UZBEK SSR IN THE 1950s (Based on Archival Materials)**

Annotation

This article examines the activities of the Prosecutor's Office of the Uzbek SSR in the 1950s in supervising the implementation of legislation, based on archival documents. Particular attention is paid to the role of prosecutorial supervision in ensuring legality during the post-war reconstruction period, especially in safeguarding the national economy and strengthening legal discipline. The study analyzes the measures undertaken by prosecutorial authorities, identifies the shortcomings and deficiencies encountered in the exercise of prosecutorial supervision, and evaluates their legal and institutional implications. Furthermore, the article provides a historical and legal analysis of the Prosecutor's Office's supervisory activities in enforcing legislation during the period under study. The findings are based on previously underutilized archival sources, which make it possible to reconstruct the practical mechanisms of prosecutorial supervision and to assess their significance in maintaining socialist legality in the Uzbek SSR.

**МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОЦИАЛИСТИЧЕСКОЙ ЗАКОННОСТИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОБЩЕГО
НАДЗОРА ПРОКУРАТУРЫ УЗБЕКСКОЙ ССР В 1950-Е ГОДЫ (НА ОСНОВЕ АРХИВНЫХ МАТЕРИАЛОВ)**

Аннотация

В данной статье на основе архивных документов освещается деятельность органов прокуратуры, осуществлявших надзор за исполнением законов в 1950-е годы. Рассматриваются меры прокурорского надзора, направленные на обеспечение сохранности народного хозяйства республики в послевоенный период, анализируются результаты деятельности органов прокуратуры, а также выявляются допущенные ошибки и недостатки в осуществлении надзорных функций. Кроме того, в статье представлен анализ материалов, характеризующих деятельность органов прокуратуры по осуществлению надзора за соблюдением законодательства в рассматриваемый период.

**1950-YILLARDA O'ZBEKISTON SSR PROKURATURASINING UMUMIY NAZORAT FAOLIYATIDA
SOTSIALISTIK QONUNIYLIKNI TA'MINLASH MEKANIZMLARI (ARXIV MATERIALLARI ASOSIDA)**

Annotatsiya

Mazkur maqolada qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokuratura organlarining 50-yillardagi faoliyati arxiv hujjatlariga asoslangan holda yoritilgan. Maqolada urushdan keyingi yillarda prokuratura organlari tomonidan respublika xalq xo'jaligini saqlashda prokuror nazoratini o'rnatilishi, amalga oshirilgan ishlar, yo'l qo'yilgan hato va kamchiliklar ochib berilgan. Bundan tashqari, prokuratura organlari tomonidan mazkur davrdagi qonunchilikni nazoratini amalga oshirishdagi faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar tahlili keltirilgan.

Kirish. XX asrning 50-yillari Sovet Ittifoqi tarixida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, sotsialistik qonuniylilikni mustahkamlash hamda davlat hokimiyati organlari faoliyatida qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar kuchaytirilgan davr hisoblanadi. Urushdan keyingi yillarda xalq xo'jaligini tiklash, davlat va jamoat mulkini muhofaza qilish, mehnat intizomini mustahkamlash hamda mahalliy davlat boshqaruvi organlari faoliyatini qonun talablari asosida tashkil etish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda prokuratura organlari muhim huquqiy institut sifatida ishtirok etdi.

Sovet huquq tizimida prokuraturaning asosiy vazifasi qonunlarning davlat organlari, mansabdor shaxslar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar tomonidan aniq hamda bir xil ijro etilishi ustidan oliy nazoratni amalga oshirishdan iborat edi. Shu bois prokuratura organlarining umumiy nazorat sohasidagi faoliyati davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlash, qonunbuzilishlarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etishning muhim huquqiy vositasi sifatida shakllandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqillik yillarida prokuratura tarixi bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsada, 1950-yillarda O'zbekiston SSR prokuraturasining umumiy nazorat faoliyati arxiv hujjatlariga asosida kompleks tarzda maxsus o'rganilmagan. Ayniqsa, mahalliy mehnatkash deputatlar Sovetlari ijroiya qo'mitalari faoliyati ustidan amalga oshirilgan prokuror nazorati, qonunga zid qarorlarni bekor qilish, davlat va jamoat mulkini muhofaza qilish hamda prokuror ta'sir choralarining amaliy ahamiyati ilmiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilmagan.

Maqolaning manbaviy asosini O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan 1952 yilga oid prokuratura hujjatlari tashkil etadi. Mazkur arxiv materiallari prokuratura organlarining mahalliy davlat boshqaruvi tizimida qonuniylilikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirgan chora-tadbirlarini aniq tarixiy misollar asosida tadqiq etish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur mavzuni tadqiq etishda tarixiy-qiyosiy, tizimlilik va qiyosiy tahlil tamoyillaridan foydalanib arxiv fondlari hujjatlari va ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, muammoviy-xronologik usullaridan

foydalanilgan. Shuningdek, tarix fanining mikrotarix yo'nalishi mazkur maqolani yoritishning asosini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda prokuratura organlari faoliyatida so'nggi yillarda sezilarli darajada o'zgarishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyev sohaning jamiyatdagi o'rni haqida "...Odamlar hamma narsaga chidashi mumkin, adolatsizlikka chiday olmaydi. Jamiyatda adolat barqaror bo'lishida prokuratura organlarining o'rni katta bo'lmog'i kerak" [1] – deb ta'kidlaganida bu tashkilotni jamiyat hayotidagi o'rni naqadar muhim ekanligini ko'rsatib o'tadi. Bu o'z navbatida prokuratura organlarini takomillashtirish va ularni faoliyatini chuqurroq tadqiq etish kerakligini ham anglatadi.

Ma'lumki, Turkistonda oktabr to'ntarishidan keyin mavjud tuzumni mustahkamlash, qonunlar ijrosini nazorat qilish amalda sovetlar tomonidan "yangicha usul"da ishlab chiqildi. Buning yaqqol dalili sifatida RSFSR XKS tomonidan qabul qilingan dekret asosida "Sud nizomlarini qayta tashkil haqida"gi 1917 yil 12 dekabrda qabul qilingan qarorda sud tergovchilari, prokurorlik nazorati, himoyachi va xususiy advokatlar faoliyati tugatilishi belgilab qo'yildi[2]. Keyinchalik o'lkada prokuratura tizimining joriy etilishi jarayoni Turkiston MIKning 1922 yil aprel oyidagi qarori bilan huquqiy tasdig'ini topib, qarorga asosan "Adliya xalq komissarligi huzurida davlat prokuraturasi bo'limi, viloyatlarda esa xalq sudlari qoshida viloyat davlat prokurori lavozimi ta'sis etildi[3].

Prokuratura organlari o'z faoliyati davomida 20-30 yillardagi islohotlarni amalga oshirish, siyosiy qatag'onlik va ikkinchi jahon urushi yillaridagi faoliyatlarida og'ir jarayonlarni boshdan o'tkazdi. Bu yillarda inqilobiy qonunlar ijrosini ta'minlashdan boshlab sotsialistik qonunlar ijrosiga ham o'z e'tiborini qaratib keldi.

Urushdan keyingi yillarda SSSR prokuraturasi o'z faoliyatini yagona markazlashgan tizim asosida amalga oshirib, davlat organlari, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning aniq hamda bir xilda bajarilishi ustidan oliy nazoratni ta'minladi. Umumiy prokuror nazorati mazkur davr prokuraturasi faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning mazmuni davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarning qonuniyligini tekshirish, qonun buzilishlarini aniqlash, ularni bartaraf etish va qonun talablarining buzilishiga yo'l qo'yan mansabdor shaxslarga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llashdan iborat edi.

Arxiv hujjatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston SSR prokuraturasi mazkur vakolatlarni amaliy jihatdan izchil amalga oshirgan. Jumladan, 1952 yil 23 avgustda respublika rahbariyatiga kiritilgan "Mehnatkash deputatlar mahalliy Sovetlari ijroiya qo'mitalari tomonidan sotsialistik qonuniylarning buzilishi haqida"gi ma'lumotda mahalliy mehnatkash deputatlari Sovetlari ijroiya qo'mitalari tomonidan O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi talablarining muntazam ravishda buzilayotgani qayd etilgan. Prokuratura tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar mahalliy ijroiya qo'mitalari qonunchilikda belgilanmagan vakolatlarni amalga oshirib, davlat va kolxoz mulkini noqonuniy hisobdan chiqarish, budjet mablag'laridan maqsadsiz foydalanish, yer munosabatlari tartibga soluvchi qonun hujjatlarini buzish hamda majburiy xususiyatga ega bo'lgan noqonuniy qarorlar qabul qilish holatlariga yo'l qo'ygani ko'rsatadi.

Bu misollar prokuratura organlari umumiy nazoratining faqat huquqbuzarliklarni qayd etish bilan cheklanmaganini, balki davlat boshqaruvi organlari faoliyatini qonun talablariga muvofiq tashkil etishga qaratilgan huquqiy mexanizm sifatida faoliyat ko'rsatganini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan 1952 yilga oid prokuratura hujjatlari

respublikada sotsialistik qonuniylarni ta'minlash amaliyotini o'rganish uchun muhim birlamchi manbalar hisoblanadi. Ushbu hujjatlar mahalliy davlat boshqaruvi organlari tomonidan yo'l qo'yilgan qonunbuzilishlarni aniqlash, ularga huquqiy baho berish va prokuror nazoratining amaliy mexanizmlarini tahlil qilish imkonini beradi.

1952 yil 23 avgustda O'zbekiston SSR prokurori vazifasini bajaruvchi K.Borovikov tomonidan O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Sh. Rashidov nomiga kiritilgan axborotnomada mahalliy mehnatkash deputatlar Sovetlari ijroiya qo'mitalari tomonidan amaldagi qonunchilik talablarining tizimli ravishda buzilayotgani haqida ma'lumotlar keltirilgan[4]. Hujjatda prokuratura tekshiruvlari natijasida aniqlangan holatlar alohida misollar bilan asoslangan bo'lib, ular mahalliy boshqaruv organlari faoliyatida qonuniylar ustidan nazorat yetarli darajada ta'minlanmaganini ko'rsatadi.

Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, eng ko'p uchragan qonunbuzilishlardan biri davlat va kolxoz mulkiga oid munosabatlarda qonun talablarining buzilishi bo'lgan. Jumladan, Uzun rayoni ijroiya qo'mitasi Frunze nomidagi kolxozda talon-toraj qilingan 163954 rubl miqdoridagi mablag'ni jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlari yakunlanmasdan turib hisobdan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilgan[5]. Mazkur holat ijroiya qo'mitasining o'z vakolati doirasidan chetga chiqqanini hamda tergov organlari vakolatiga aralashganini ko'rsatadi. Bu esa davlat mulkini muhofaza qilish sohasida qonun ustuvorligi prinsipining buzilganidan dalolat beradi.

Shunga o'xshash holatlar G'allaorol, Qoraqishloq va Xiva rayonlari ijroiya qo'mitalari faoliyatida ham kuzatilgan. Arxiv hujjatlarida kolxozlarning debitor qarzdorligini undirish choralari ko'rilmadan turib hisobdan chiqarish, kolxoz mablag'larini qonunchilikda nazarda tutilmagan maqsadlarga sarflash hamda davlat mablag'larini noqonuniy qayta taqsimlash holatlari qayd etilgan[6]. Masalan, Galla-Orol rayoni ijroiya qo'mitasining 1952 yil 19 yanvardagi qarori bilan quyidagi kolxozlarning debitorlik qarzlari noqonuniy ravishda hisobdan chiqarilgan:

Oxunboboyev nomidagi kolxoz - 44 190 rubl;

Engels nomidagi kolxoz - 11 250 rubl;

Stalin nomidagi kolxoz - 53 290 rubl;

"Qizil Quchoq" kolxozi - 4 528 rubl va 445 sentner don mahsuloti[7].

Bunda ushbu qarzdorliklarni undirish bo'yicha hech qanday zarur choralar ko'rilmaganligi qayd etiladi. Shuningdek, Xiva rayoni ijroiya qo'mitasining 1952 yil 5 yanvardagi qarori bilan Davlat banki bo'limi boshqaruvchisiga MTS (Mashina-traktor stansiyasi) qoshida traktorchilar tayyorlash bo'yicha uch oylik rayon kurslarini o'tkazish uchun tasdiqlangan smeta mablag'larini kolxozlar hisobidan hisobdan chiqarish taklif etilgan bo'lib, rayon ijroiya qo'mitasi mazkur qarorni qabul qilar ekan, SSSR Ministrlar Sovetining 1948 yil 27 yanvardagi 161-son qarorining 6-moddasiga muvofiq, MTS traktorchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirishi shartligini buzganliklari va amaldagi qonunni bilishi lozimligi qayd etiladi[8]. Qo'shko'pir rayoni ijroiya qo'mitasining 1952 yil 26 yanvardagi qarori bilan Nazarbek qishloq Soveti hududidagi Stalin nomidagi kolxozga qishloq omonat kassasi uchun to'liq jihozlangan bino ajratib berish topshirilganligi, Andijon viloyati ijroiya qo'mitasining 1952 yil 12 iyundagi 621/16-son qarori bilan Andijon irrigatsiya o'rmon xo'jaligidan 8,31 gektar yer maydoni olib qo'yilib, uni "Sredazneft" birlashmasiga pioner lageri tashkil etish uchun doimiy foydalanishga berish belgilanganligi, biroq SSSR Ministrlar Sovetining 1948 yil 25 martdagi qaroriga muvofiq, bunday yer maydonlarini olib

qo'yish faqat SSSR Ministrlar Sovetining ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin ekanligi bildirib o'tiladi[9].

Mazkur hujjatda paxta dalalarini qisqartirish evaziga aholiga tomorqa yer ajratilganligi ham jiddiy tanqid qilinadi. Xususan, Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasi 1952 yil 10 maydagi 16/511-son qarori bilan SSSR Ministrlar Sovetining 1949 yil 20 yanvardagi 216-son qarorini buzgan holda kolxozlardan ishchilar va xizmatchilarning shaxsiy tomorqalari uchun yer uchastkalari ajratilishiga ruxsat berilgan. Jumladan:

Galla-Orol tumanida - 111,95 gektar;

Jizzax tumanida - 24 gektar;

Komsomol tumanida - 14 gektar;

Qo'shrabot tumanida - 13 gektar;

Pastdarg'om tumanida - 11 gektar va boshqa hududlarda ajratilganligi o'rganishlar natijasida aniqlanganligi bayon etiladi[10]. Bu o'z navbatida sovet davlati uchun paxta naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ham yaqqol isboti hisoblandi.

Bu kabi holatlar arxiv hujjatida ko'plab keltirilgan bo'lib prokuratura organlari tomonidan mazkur holatlarga huquqiy baho berilganligini ko'rsatadi. Bu esa mahalliy davlat boshqaruvi organlari tomonidan moliyaviy intizomning buzilganini va davlat iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazuvchi qarorlar qabul qilinganini ham ko'rsatadi.

Prokuratura tekshiruvlari mahalliy ijroiya qo'mitalari tomonidan normativ vakolatlarining ham noqonuniy amalga oshirilganini aniqlagan. Xususan, ayrim rayon ijroiya qo'mitalari aholi uchun majburiy bo'lgan farmoyishlar qabul qilib, ularni buzgan shaxslarga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilmagan javobgarlik choralari belgilagan. Masalan, Qorasuv rayon ijroiya qo'mitasi tomonidan qishloqlarda tuz savdosini cheklash, Toshkent rayoni ijroiya qo'mitasi tomonidan esa aholidan o'rilgan o't-xashakni musodara qilishga oid farmoyishlar chiqarilgan[11]. Bunday qarorlar mahalliy davlat organlarining huquq ijodkorligi vakolatlari qonun bilan cheklanganiga qaramay, ular tomonidan ma'muriy majburlor choralari mustaqil belgilashga urinishlar mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Arxiv hujjatlarida mahalliy moliya organlari faoliyatiga ham tanqidiy baho berilgan. Prokuratura tekshiruvlari natijasida bir qator rayonlarda qishloq Sovetlarida ko'p yillar davomida moliyaviy reviziyalar o'tkazilmagani aniqlangan[12]. Bu esa davlat mablag'larining talon-toroj qilinishi uchun sharoit yaratgan. Xususan, Buxoro viloyatida ko'p bolali va yolg'iz onalarga to'lanishi lozim bo'lgan nafaqa mablag'larining o'zlashtirilgani haqidagi ma'lumotlar prokuror nazoratining ijtimoiy himoya sohasida ham muhim ahamiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Arxiv materiallarining tahlilidan ko'rinadiki, prokuratura mahalliy davlat boshqaruvi organlari tomonidan yo'l qo'yilgan qonunbuzilishlarni qayd etish bilan cheklanmagan. U noqonuniy qarorlarga protest kiritish, ularni bekor qilishni talab etish, mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish, respublika rahbariyatiga taqdimnomalar kiritish hamda qonunbuzilishlarning kelib chiqish sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan kompleks huquqiy choralarni taklif etgan. Bu esa prokuratura umumiy nazoratining profilaktik xususiyatiga ham ega bo'lganini ko'rsatadi.

Arxiv hujjatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 1950-yillarda O'zbekiston SSR prokuraturasining umumiy nazorat faoliyati qonunbuzilishlarni qayd etish bilan cheklanmagan. Prokuratura qonun talablarining buzilishini bartaraf etishga qaratilgan huquqiy ta'sir choralari qo'llash orqali davlat boshqaruvi tizimida qonuniylikni tiklashga intilgan. Bu jarayon prokuror protesti, taqdimnoma, ko'rsatma va respublika rahbariyatiga kiritilgan axborotnomalar orqali amalga oshirilgan.

Arxiv materiallarining o'ziga xos xususiyati shundaki, prokuratura qonunbuzilishlarning huquqiy oqibatlarini bartaraf etish bilan birga, ularning kelib chiqish sabablarini ham tahlil qilgan. Xususan, respublika rahbariyatiga taqdim etilgan axborotnomada mahalliy davlat organlari rahbarlarining huquqiy savodxonligini oshirish, qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligini muntazam tekshirib borish hamda moliyaviy nazorat tizimini kuchaytirish yuzasidan aniq takliflar ilgari surilgan. Bu holat prokuratura faoliyatining profilaktik xususiyatini ham namoyon etadi.

Arxiv hujjatlari tahlili 1950-yillarda O'zbekiston SSR prokuraturasining umumiy nazorat faoliyati faqat qonunbuzilishlarni aniqlash bilan cheklanmaganini, balki davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashning institutsional mexanizmi sifatida amal qilganini ko'rsatadi. Prokuratura mahalliy davlat hokimiyati organlari qabul qilgan qarorlarning qonuniyligini baholash, ularni bekor qilish tashabbusi bilan chiqish, davlat va jamoat mulkini muhofaza qilish hamda moliyaviy intizomni mustahkamlash orqali sotsialistik qonuniylikni ta'minlashda markaziy huquqiy institutlardan biri vazifasini bajargan. Mazkur arxiv hujjatida O'zbekiston SSR Prokuraturasida 1952 yil 29 mayda mehnatkash deputatlar mahalliy Sovetlari ijroiya qo'mitalari tomonidan noqonuniy qarorlar qabul qilinishi va majburiy farmoyishlar chiqarilishi haqida rahbariyatga ma'lum qilganligi biroq, ko'rilgan choralarga qaramasdan, bu kabi qonunbuzarliklar hozirga qadar bartaraf etilmaganligi qayd etiladi. Shu jihatdan mazkur arxiv hujjatlari prokuratura organlarining tarixiy faoliyatini baholashda muhim ilmiy manba bo'lib, ularning umumiy nazorat institutining mazmuni va amaliy ahamiyatini yangi tarixiy-huquqiy nuqtai nazardan ochib beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 7 yanvarda Prokuratura organlari xodimlari kuni oldidan bir guruh soha xodimlari bilan uchrashuvdagi nutqi. <https://kun.uz/12889633>.
2. N.T.Yo'ldoshev umumiy tahriri ostida. G.R.Malikova, O.M.Abduraimov va boshqalar. "Qonunga himoyasiga hayot bahshida". Toshkent,-2022. Tamaddun. -B.18.
3. Зотов В.А., Саркисянц Г.П. "На страже законности и прав граждан" Общественные науки в Узбекистане. 1972. №5. С-37.
4. O'zMA P-1710-jamg'arma, 11-ro'yhat, 644-ish, 3-varaq.
5. O'zMA P-1710-jamg'arma, 11-ro'yhat, 644-ish, 3-varaq.
6. O'zMA P-1710-jamg'arma, 11-ro'yhat, 644-ish, 3-varaq.
7. O'zMA P-1710-jamg'arma, 11-ro'yhat, 644-ish, 4-varaq.
8. O'zMA P-1710-jamg'arma, 11-ro'yhat, 644-ish, 4-varaq.
9. O'zMA P-1710-jamg'arma, 11-ro'yhat, 644-ish, 4-varaq.
10. O'zMA P-1710-jamg'arma, 11-ro'yhat, 644-ish, 5-varaq.
11. O'zMA P-1710-jamg'arma, 11-ro'yhat, 644-ish, 6-varaq.
12. O'zMA P-1710-jamg'arma, 11-ro'yhat, 644-ish, 6-varaq.